



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



3 624,6
mlrd. so'm

117,2 %

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida jami **3 624,6** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **117,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda**



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 705 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 153 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **113,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **51,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **109,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,0 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **106,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **42,0 %**) o'sishidir.




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.10.2020- yil	01.10.2021- yil	
				
	Navoiy viloyati	1 552	1 705	109,9
	Navoiy sh.	424	484	114,2
	Zarafshon sh.	129	149	115,5
	G'ozg'on sh.	-	3	-
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	255	279	109,4
	Konimex	39	42	107,7
	Qiziltepa	229	252	110,0
	Navbahor	186	190	102,2
	Nurota	100	109	109,0
	Tomdi	38	43	113,2
	Uchquduq	54	53	98,1
	Xatirchi	98	101	103,1




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (28,4 %), Karmana (16,4 %) va Qiziltepa (14,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **907,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **117,3** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **25,0** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **63,5 %** ni), Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **27,2 %** ni) va Navoiy shahriga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,2 %** ni) to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **48,7 %** ga to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,3** punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **117,3 %** ni tashkil etgan holda **1 766,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi yoki **951,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **116,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **710,8** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 913,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **19,6 %** va **80,4 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	3624,6	2946,8	100,0	710,8	100,0
Navoiy sh.	919,9	783,2	27,0	136,7	19,2
Zarafshon sh.	796,2	255,1	7,6	541,1	80,8
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	385,4	385,4	13,2		
Konimex	35,8	35,8	1,2		
Qiziltepa	586,2	586,2	20,1		
Navbahor	273,2	273,2	9,4		
Nurota	227,3	227,3	7,8		
Tomdi	23,0	23,0	0,8		
Uchquduq	44,1	44,1	1,5		
Xatirchi	333,5	333,5	11,4		

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar- sentabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,6 % ni yoki **2 738,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **907,2** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 25,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 766,3** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,7 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **951,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 26,3 % ni tashkil etdi.






**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)
Navoiy viloyati	3624,6	117,2	2812,1
Navoiy sh.	919,9	129,9	742,4
Zarafshon sh.	796,2	107,5	598,9
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	385,4	111,9	281,2
Konimex	35,8	100,1	30,9
Qiziltepa	586,2	130,3	435,9
Navbahor	273,2	108,2	191,2
Nurota	227,3	111,0	157,5
Tomdi	23,0	117,8	14,1
Uchquduq	44,1	113,9	42,2
Xatirchi	333,5	111,4	317,8

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **20,9 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,9** punktga ko'payib, **63,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-sentabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **10,1** punktga kamayib, **15,6 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **15,9 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,2 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **84,1 % (0,2 % ko'payish)** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **18,1 %** ga kamaydi va **39,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **60,3 %** ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **18,1 %** ga ko'paydi.

ulushi, % da





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar- sentabr oylarida

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	3624,6	2738,9	527,8	357,9
Navoiy sh.	919,9	686,9	164,9	68,1
Zarafshon sh.	796,2	435,2	187,5	173,5
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	385,4	337,2	30,8	17,4
Konimex	35,8	27,4	5,2	3,2
Qiziltepa	586,2	497,0	63,6	25,6
Navbahor	273,2	220,3	29,2	23,7
Nurota	227,3	196,1	14,4	16,8
Tomdi	23,0	18,5	1,9	2,6
Uchquduq	44,1	24,0	12,0	8,1
Xatirchi	333,5	296,3	18,3	18,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida
qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar
qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xatirchi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 88,8 % ni yoki **296,3** mlrd. so'm), shuningdek, Karmana tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,5 % ni yoki **337,2** mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 86,3 % ni yoki **196,1** mlrd. so'm) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 27,2 % ni yoki **12,0** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 23,5 % ni yoki **187,5** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 17,9 % ni yoki **164,9** mlrd. so'm) qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 21,8 % ni yoki **173,5** mlrd. so'm), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,4 % ni yoki **8,1** mlrd. so'm), Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 11,3 % ni yoki **2,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. soʻmda)



Maʼlumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm koʻrsatkichi Navoiy shahri (919,9 mlrd.soʻm), Zarafshon shahri (796,2 mlrd.soʻm), Qiziltepa (586,2 mlrd.soʻm), Karmana (385,4 mlrd.soʻm) tumanlari-ga toʻgʻri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boʻlimi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73